



9- __sinf o'quvchisi _____

F.I.SH.

O'quvchi to'plagan umumiy ball: _____ (maksimal ball: 30)

I Chorak BSB-1

1. Quyidagi jadvalda 3-davr elementlaridan bir nechtasining ba'zi xossalari ko'rsatilgan. 3-davr elementlarida chapdan o'ngga qarab atomlarning radiusi, metallik xossasi, ionlanish energiyasi, elektromanfiyligi qanday o'zgarishini yozing.

Element	Atom raqami	Guruh
Na	11	I
Mg	12	II
Al	13	III
Si	14	IV

2. Quyidagi moddalar tarkibiga kiruvchi atomlar orasida hosil bo'lgan bog'lanish turlarini aniqlang. Bu moddalarda mavjud bo'lgan bog' turlari qanday zarrachalar(atomlar) orasida yuzaga kelishi mumkinligini izohlang.

Modda	Moddadagi bog'larning grafik ifodalanishi	Elektrmanfiyliklar farqi (ΔEN)
H ₂	H-H	0
HCl	H-Cl	0.9
NaCl	Na-Cl	2.1
Mg	Mg-Mg	0

3. Quyidagi jadvalda moddalar va shu moddalar suvda eritilganda eritmada mavjud bo'ladigan zarrachalar ko'rsatilgan. Bu moddalardan qaysilari kuchli elektrolit, qaysilari kuchsiz elektrolit yoki noelektrolit ekanligini aniqlang va ularning har biri nima sabab(lar)ga ko'ra kuchli yoki kuchsiz elektrolit shuningdek noelektrolit hisoblanishini izohlang.



Modda	Moddaning suvli eritmasida H_2O , H^+ , OH^- dan tashqari mavjud bo'lgan zarrachalar	Kuchli elektrolit/ Kuchsiz elektrolit/ Noelektrolit
NaCl	Na^+ , Cl^-	
$C_6H_{12}O_6$	$C_6H_{12}O_6$	
HCl	H^+ , Cl^-	
CH_3COOH	CH_3COO^- , H^+ , CH_3COOH	

Moddalarning har biri nima sabab(lar)ga ko'ra kuchli yoki kuchsiz elektrolit shuningdek noelektrolit hisoblanishini izohlang.

4. Quyidagi moddalarning formulalarni ko'rib chiqib, ularning suvdagi dissotsiatsiya tenglamasini yozing.

a) $H_2SO_4 \rightarrow$

b) $NaOH \rightarrow$

5. Ion, metall va kovalent qutbli, kovalent qutbsiz bog'lanishli moddalarning elektr o'tkazuvchanligi qanday? Ular qattiq agregat holatda elektr tokini o'tkazadimi? Suvga solib aralashtirilganidachi?



PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO
BAHOLASH ILMIY-AMALIY
MARKAZI



PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO
BAHOLASH ILMIY-AMALIY
MARKAZI